

## SHAMOLLARNING GEOLOGIK ISHI

**Meliqo‘ziyeva Nilufarxon G‘ayratjon qizi**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola shamollar va ularning geologik ishi mavzusida bo‘li, shamollar yer yuzi relefiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Maqlada shamollarning tabiatdagi bajaradigan ishlari hamda deflyatsiya, korroziya, transirovka, akkumulyatsiyalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Shamol, deflyatsiya, korroziya, transirovka, akkumulyatsiya, barxan, dyuna.

### KIRISH

Atmosferadagi havo massalarining yer yuzasiga nisbatan harakati shamol deyiladi. Shamol vujudga kelishining asosiy sababi yer yuzasining turli joylaridagi havo bosimida farq bo‘lishidir. Shamol xavo bosimining notekis taqsimlanishi, markazdan qochma kuch, karioliz kuchi, ishqalanish kuchi natijasida paydo bo‘ladi. Yer yuzi relefini o‘zgartiradigan hamda alohida xususiyatga ega bo‘lgan yotqiziqlar hosil qiladigan muhim ekzogen omillardan biri shamoldir.

### ASOSIY QISM

Cho‘l va sahro zonalarida shamol gemorfologik ish bajaradi. Shamollarning geologik ishiga quyidagilar kiradi:

1. Deflyatsiya.
2. Korroziya.
3. Transportirovka.
4. Akkumulyatsiya.

Shamol barcha o‘nqir-cho‘nqirlarga, qoya toshlarning orasiga kirib borib undagi mayda zarrachalarni uchirib ketadi. Bu hodisa deflyatsiya deyiladi. Deflyatsiya natijasida qatlami mo‘rt jinslar g‘aroyib shakllar paydo bo‘ladi. Korraziya ochilib qolgan tog‘ jinslari va minerallarga mexanik ishlov berish, silliqlash, tarashlash bo‘lib, bu hodisa uchib ketayotgan qum zarrachalari yordamida vujudga keladi. Qum zarrachalari uchib har xil balandlikka ko‘tariladi. Pastroqda uchrayotgan qum zarrachalari qoya toshlarni “bombardimon” qilib, “burg‘ulash” ishlarini amalga oshiradi. Shunday qilib, deflyatsiya va korraziya xodisalari birlashib tabiatda toshlardan g‘aroyib shakllar yasashadi, kichik g‘orlar, teshik toshlar, ustunlar, odamsimon, hayvonlarni eslatuvchi shakllar vujudga keladi. Shamollarning


geologik ishi natijasida qum tepalari paydo bo‘ladi. Bu qum tepalari dyunalar deyiladi. Saxrolarda noto‘g‘ri shaklda hosil bo‘ladigan qum tepalari ham dyunalar deyiladi. Dyunalar bir yilda 100-200 metrgacha ko‘chadi. Shamol kelayotgan tomoni salgina qiya tepalikka o‘xshaydigan, shamolga qarshi tomoni esa yarim oy ko‘rinishidagi do‘nglar barxanlar deb ataladi. G‘arb yoki janubiy- g‘arbiy shamollar ko‘p bo‘lgan mavsumda hamma barxanlarning yarim oyga o‘xshash tomoni sharqqa qaraydi. Sharqiy yoki shimoliy-sharqiy shamollar ko‘p bo‘lgan vaqtarda esa barxanning yarim oyga o‘xshash tomoni g‘arbgaga yoki janubiy-g‘arbgaga qarab qoladi. Ayrim barxanlarning atrofidagi joylardan balandligi ko‘pincha 20-30 metrgacha gohida 50 metrga boradi.

Quyosh nuri quruqlik va suv yuzasini bir xil isitmaydi. Suv sekin isiyyidi va asta soviydi. Quruqlik esa tez isib, tez soviydi. Kunduz kuni quruqlik ustiga havo isib, kengayadi va bosim pasayadi. Ko‘l va dengiz ustidagi havo esa salqin turadi. Havo bosimi katta, yuqori bo‘ladi. Natijada ko‘l va dengiz ustidagi havo quruqlikka tomon harakatlanadi. Kechasi esa quruqlik tez soviganidan havo bosimi ortib, shamol quruqlikdan dengiz tomonga esadi. Shunday bir kecha-kunduzda o‘z yo‘nalishini ikki marta o‘zgartiradigan shamol briz shamoli deyiladi.

Musson shamollari esa katta materiklar yozda atrofidagi dengizlarga qaraganda ko‘proq isib ketadi, havo bosimi pasayadi. Dengizda esa havo bosimi yuqori bo‘ladi. Natijada butun yoz bo‘yi dengizlardan quruqlikka tomon shamol esadi. Demak bir yilda o‘z yo‘nalishini ikki marotaba o‘zgartiradigan shamolga aytildi.



1-rasm. Dyuna



2-rasm. Barxan

Yerning shakli sharsimon bo‘lganligi va uning o‘z o‘qi atrofida aylanishi natijasida yer yuzida yuqori va past bosimli mintaqalar hosil bo‘ladi. Yer shahrining ekvator atroflari Quyoshdan eng ko‘p issiq oladi. Shuning uchun bu hududlarda yil bo‘yi havo bosimi past bo‘ladi. Natijada  $30^{\circ}$  kenglikdan ekvatorga qarab doimiy shamollar esib turadi. Yer aylangani sababli bu shamollar ekvator yaqinida g‘arb

tomonga burilib ketadi. Bu shamollar passat shamollaridir. Esayotgan shamol yo‘nalishi flyuger yordamida aniqlanadi.

### XULOSA

Shamollar tabiatda juda muhim geologik ishni bajaradi. Relyef shakllari hosil qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Geologiya asoslari. A.X. Jo‘liyev, A.Soatov, R.Yusupov Toshkent 2001
2. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov Toshkent 2002
- 3 Umumiyegeologiya. B.T.Toshmuhammedov Noshir 2011
4. Yer po‘stining harakatlari. N.Meliqo‘ziyeva
5. <https://uz.wikipedia.org>
6. <https://hozirgi.org>
7. <https://www.genderi.org>
8. Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi 5-sinf uchun darslik. P.N Gulyamov, R. Qurbonniyozov, M.M Avezov, N.P Saidova TOSHKENT-MITTI YULDUZ-2020